

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM

Parpiyev Odil Olimovich,

Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqil ta'lim, uning maqsadi, vazifalari, turlari va shakllari ifodalangan. Ta'lim berishning kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim ta'lim sifatini oshirish kafolati ekanligi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tayanch so'zlar:** axborot kommunikatsion bilim, interaktiv usul, kreativ fikrlash, Hemis platformasi, moderator, o'quv loyiha, mustaqil ish.

Bugungi kun ta'limini axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki bozor munosabatlari sharoitida raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan eng asosiy talablardan biri ham bo'lajak kadrlarning axborot kommunikatsion bilimlarga ega bo'lishidir. Chunki: "Axborot texnologiyalari va raqamli ta'lim vositalari rivojlanishi talabalarning mustaqil ta'lim olishini, o'quv jarayonini boshqarishni takomillashtirish, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi muloqotni ta'minlash, hatto bilimni baholash jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda" [1].

Ushbu maqolada mustaqil ta'limning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyatiga to'xtalib o'tmoqchiman. Xo'sh, mustaqil ta'lim nima? "Talaba mustaqil ishi – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir" [2].

Talabalarga mustaqil ta'lim berishdan ko'zlangan maqsadlar quyidagicha:

- dars mashg'ulotlarida olgan bilimlarini kengaytirish va mustahkamlash;
- o'quv materiallarini mustaqil o'rganish;
- ilmiy tadqiqot malakalarini rivojlantirish;
- mavjud o'quv materiallarini mustaqil tahlil qilish va tartibga solish;
- kreativ fikrlash va ijodiy tashabbuskorlikni rag'batlantirish.

Demak, talabalar mustaqil ishining asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy yondashish orqali ta'lim olishga qiziqishni orttirish va talabaning mustaqil ishlash nima uchun zarurligini anglab yetishiga erishishdir. Jumladan, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari bilan bolalar adabiyoti fanini o'rganish



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

jarayonida fan materiallarini o'zlashtirish yuzasidan quyidagicha ish turlari tashkil qilinishi mumkin:

1. Auditoriyada bajariladigan mustaqil ishlar. Auditoriyada bajariladigan mustaqil ishlar talabalardan ko'p vaqt talab etmasligi, tavsiya etilgan muammo yechimini hal qilishda ta'limning interaktiv usullaridan foydalanishning qulayligi bilan xarakterlanib, talabalarda o'z-o'zini baholash va idora qilish, nutqiy malakalarni rivojlantirish, o'zaro bir-birini tushunish kabi sifatlar rivojlantiriladi. Masalan, 4-darsda "An'anaviy ertak" mavzusi o'tilganda talabalarga ertak boshlamasi, ertak yakuni variantlari, ertaklarni mavzu jihatdan guruhlash, ijobiy qahramonlar, salbiy qahramonlar, ertaklarning jozibadorligi kabi mavzularda topshiriqlar berilib, belgilangan vaqtda talabalar kichik guruhlarda mavzuni yoritishi, talab va takliflarini bayon qilishi talab etiladi. Boy munozaralar, savol-javoblar asosida o'tadigan talabalarning har bir taqdimoti bir-birini baholash va tanqidiy yondashuv asosida tashkil etiladi. Auditoriyada bajariladigan mustaqil ishlarning "Aylana stol", FSMU, "Savol-javoblar musobaqasi", "Baliq skeleti", "VEN", "Intellektual ring", "Men jurnalistman" kabi interaktiv metodlar asosida tashkil etilishi bo'lajak o'qituvchilarda kompetensiyaviy malakalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlar. Auditoriyadan tashqarida bajariladigan ishlar talabalardan keng qamrovli kichik izlanishlarni talab qilishi, topshiriq yuzasidan mustaqil tahliliy qarorlar qabul qilish, internet saytlari va axborot resurs markazi imkoniyatlaridan samarali foydalanish va mustaqil ta'limga qo'yilgan talablar asosida axborotlarning tayyorlanishi, belgilangan vaqt oralig'ida Hemis masofaviy ta'lim platformasiga joylashtirilishi va fan o'qituvchisi tomonidan baholanib, yozma munosabat bildirilishi bilan xarakterlanadi. Jumladan, "Boshlang'ich sinflarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi III" fanidan dars mashg'ulotlarini tashkil qilishda talabalarga oldindan topshiriq sifatida beriladigan mashg'ulot mavzusiga oid ilmiy maqolaga sharh yozish, maktab amaliyotida boshlang'ich sinf savod o'rgatish, o'qish savodxonligi darslaridagi muammoli vaziyatlarni topish va uni bartaraf qilish strategiyalarini ishlab chiqish, novator boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan ijodiy suhbat, 4 K modeli asosidagi kompetensiyalarni amaliyotga joriy qilish haqidagi xorijiy tajriba singari vazifalar hamda ularni keng qamrovli tahlilini amalga oshirish talabalarning bugungi kun ta'limidagi asosiy yutuq va kamchiliklarni his qilishlariga yaqindan yordam beradi. O'qituvchining vazifasi esa moderatorlik bo'lib, talabalarning analitik fikrlarini



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

umumlashtirishga yordam beradi. Bu esa ta'limning induktiv va deduktiv metodlarini ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishiga olib keladi.

Mustaqil o'quv loyihaviy topshiriqlarni tayyorlash va guruh bo'lib taqdimot qilish, ilgari surilayotgan fikrlarni himoya qilish hamda tayyor bo'lgan aqliy mahsulotni maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflariga taqdim qilib borish amaliyot bilan nazariyaning o'zaro bog'liqligi asosida bo'lajak pedagoglarning sohaga doir ko'nikmalarining rivojlanishiga hissa qo'shadi. "QUda to'y", "Oppog'oyning tug'ilgan kuni", "O'rmonda yangi yil", "Sun'iy intellekt", "Muammolar va yechimlar" mavzusida tayyorlangan o'quv loyiha ishlari eng namunalari sanalib, bu ishlardan MTT va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari amaliyotda foydalanib kelmoqdalar.

Zamonaviy o'qitishning kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ishiga alohida e'tibor berilishi, o'qituvchi va talabalar o'rtasida muloqot o'rnatishning yangi interaktiv usullarning joriy qilinishi talabalarning muayyan mavzu doirasida mustaqil izlanishlariga keng yo'l ochib beradi. Bu esa o'z navbatida ularda ilmiy tafakkurni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Ta'lim jarayonida o'qituvchining moderator va fasilitator maqomida bo'lishi ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

Talabalar mustaqil ta'lim olishini faollashtirish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Talabalarga o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini berish.
2. Mustaqil o'rganishda savol, so'rovlardan foydalanish.
3. O'zini tutish modellarini taklif etish.
4. Ta'limga yo'naltirilgan tilni o'z ichiga olgan aloqani rivojlantirish.
5. Har qanday topshiriq ijrosi bo'yicha yozma yoki og'zaki munosabat bildirish.
6. Hamkorlikni rag'batlantirish.
7. Talabalarga tanlov imkoniyatini berish va ularning o'z o'quv maqsadlarini belgilashga undash.
8. Talabalarni yangi darslarni rejalashtirishga jalb qilish.
9. Talabalarni erkin va kreativ fikrlash sari yo'naltirish.

O'qituvchi tomonidan talabalar mustaqil ishining to'g'ri tashkil qilinishi, jumladan, mustaqil ish va o'quv loyiha topshiriqlarini, mustaqil ishni yoritish uchun tavsiya qilingan adabiyotlar ro'yxatini o'z vaqtida Hemis masofaviy ta'lim platformasiga joylashtirish, talabalarni universitet axborot resurs markazi imkoniyatlaridan faol



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

foydalanishga yo‘naltirish, dars jarayonidagi mustaqil ishlarni interaktiv usullarda tashkil qilish ta‘lim sifatini oshirishdagi asosiy omil hisoblanadi.

### Iqtiboslar/snoski/references:

1. “O‘zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnal. №1/2019.110.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2009- yil 14-avgustdagi «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnomaga to‘g‘risida»gi 286-sonli buyrug‘i.
3. Mannonova Muxarramabonu, & Odiljon Parpiyev. (2023). AUDIOLINGVAL METODNING AFZALLIKLARI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 882–887. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.749>
4. Muazzamxon Xodjayeva, & Odiljon Parpiyev. (2023). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH VA SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 914–918. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.758>
5. Ochldiyeva Mushtariy, & Parpiyev Odiljon. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 640–644. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.666>
6. Xushbaqova Zarnigor Javliyevna, & Odiljon Parpiyev. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA NUTQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 645–650. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.667>.

